

“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qiladi

Hurmatli aksiyadorlar!

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi **2019 yilning 30 dekabr** kuni quyidagi manzil bo‘yicha o‘tkaziladi: Toshkent shahri, Maxtumquli ko‘chasi 1, “Kapitalbank” ATBning Yashnobod tumani filiali binosi.

e-mail: info@kapitalbank.uz

veb-sayt: www.kapitalbank.uz

Ro‘yxatdan o‘tkazish soat **10.30** da boshlanadi.

Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish soat **11.00** da boshlanadi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bank aksiyadorlari reyestrini tuzish sanasi – **2019 yil 24 dekabr**.

Kun tartibi:

- 1. “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish reglamentini tasdiqlash haqida.**
- 2. “Kapitalbank” ATB shakllangan ustav kapitalini tasdiqlash haqida.**
- 3. “Kapitalbank” ATB e‘lon qilingan aksiyalarining chegaraviy miqdorini belgilash haqida.**
- 4. “Kapitalbank” ATB Ustavi yangi taxririni tasdiqlash haqida.**
- 5. “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”, “Kapitalbank” ATB Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”, “Kapitalbank” ATB Kuzatuv kengashi a‘zolarini mukofotlash tartibi to‘g‘risida”, “Kapitalbank” ATB Boshqaruvi to‘g‘risida”, “Kapitalbank” ATB Taftish komissiyasi to‘g‘risida”, “Kapitalbank” ATB Minoritar aksiyadorlari qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomlar va “Kapitalbank” ATBning boshqa lokal hujjatlari yangi tahririni tasdiqlash haqida.**
- 6. Afillangan shaxs bilan tuzilgan bitimni tasdiqlash haqida.**

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga tayyorlangan materiallar bilan quyidagi manzil bo‘yicha tanishib chiqish mumkin: Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7-uy, “Kapitalbank” ATB Bosh ofisi binosi, 3-qavat, 36-xona.

Izoh: Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida shaxsan yoki vakil to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (ismi yoki nomi, yashash yoki joylashgan joyi, pasport ma‘lumotlari) keltirilgan, yozma ravishda tuzilgan ishonchnoma asosida ishtirok etadi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi.